

Fanning nomi: Mehnat ta'limi 7-sinf, 3-chorak, 45-46-mavzular.

Mavzu: Tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash.

Darsning maqsadi: o'quvchilarni tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash yuzasidan bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Darsning vazifalari: o'quvchilarni tikiladigan quroq buyumiga (yostiq jildi, choynak yopg'ich, yelpig'ich va b.) eskiz chizish va shablonlar tayyorlash bo'yicha ma'lumot berish, amaliy mashg'ulot jarayonida ishni toza, ozoda, tejamkorlikka rioya qilgan holda bajarish; xalq hunarmandchiligining quroqchilik yo'nalishidagi kasb turlari haqida ma'lumot berish hamda qobiliyat, qiziqish, mayllarini rivojlantirishga o'rgatish.

O'quv jarayonining mazmuni: o'quvchilarga tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash bo'yicha bilim berish, amaliy mashg'ulot jarayonida ko'nikma va malakalarini shakllantirish.

Dars shakli: amaliy.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Fanlararo bog'lanish: matematika, tasviriy san'at.

Darsda qo'llaniladigan metodlar: aqliy hujum metodi, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar bilan ishlash, taqdimot, blits-so'rovi, yelpig'ich texnologiyalari.

Texnik vosita: kompyuter texnikasi, grafoproektor, ekran, quroqchilik bo'yicha (buyumlarni eskizini chizish va shablon tayyorlash jarayoni aks etgan) slaydlar.

Kerakli jihozlar: xalq hunarmandchiligining quroq yo'nalishi asosida tayyorlangan turli xil buyumlar, quroqchilikda ishlatiladigan kartondan tayyorlangan eskiz va shablonlar.

Darsning borishi.

Darsga tayyorgarlik ko'rish va dars jarayonida sinf xonasini guruhlar ishlashi uchun tayyorlash. O'quvchilar sinfga kirish vaqtida o'qituvchi stolidan tasvir aks etgan tomoni teskari qo'yilgan rasmlardan birini olib, shu rasm ko'rsatilgan stolga borib o'tirishi kerak. O'qituvchi guruh stoliga guruhni nomini ifodalovchi tasvir, shakl yoki raqamni sinfni darsga tayyorlash vaqtida stolning o'rtasiga qo'yib qo'yadi.

Tashkiliy qism (2 daqiqa): o'quvchilar bilan salomlashish. Davomatni aniqlash.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash (8 daqiqa). (Aqliy hujum)

Xalq hunarmandchiligi yo'nalishining quroqchilik san'ati bo'yicha guruhlariga o'tilgan mavzuni takrorlash, ularning fikrlarini jamlash, faolligini oshirish maqsadida aqliy hujum metodidan foydalaniladi. Ushbu metod orqali guruh a'zolarini mavzu yuzasidan keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. O'qituvchi ushbu metodni qo'llashdan oldin guruhlar bajarishi kerak bo'lgan vazifalarni tushuntiradi. Dars jarayonida amal qilish lozim bo'lgan qoidalar sinf doskasiga ilib qo'yiladi. Reglamentga to'liq rioya qilishlari lozimligini ta'kidlaydi.

Buning uchun o`quvchilar ikki guruhga ajratiladi. Har bir guruhlariga quyidagi savollar beriladi.

1-guruh savoli: Xalq hunarmandchiligi yo`nalishining quroqchilik san`atini Surxondaryo viloyatida tutgan o`rni.

2-guruh savoli: Xalq hunarmandchiligi yo`nalishining quroqchilik san`atini Toshkent shahrida tutgan o`rni.

Guruhlariga beriladigan topshiriqlar.

1. Berilgan savollar yuzasidan har bir o`quvchi bergan javobi guruhlar uchun ajratilgan qog`ozga yoziladi.

2. Birinchi guruh yozgan javoblarni ikkinchi guruh turkumlab, tushuntirib beradi.

3. Ikkinchi guruh yozgan javoblarni birinchi guruh turkumlab, tushuntirib beradi.

Ikkala guruh taqdimotidan keyin o`qituvchi javoblarni umumlashtiradi, mavzuni mustahkamlaydi.

Oldingi darsda olgan bilimlarini eslatish va yangi mavzuga kirish maqsadida “Blits-so`rovi” o`tkaziladi. O`quvchilar uchun alohida tarqatma material beriladi va ulardan ushbu materiallarni diqqat bilan o`rganishlari so`raladi. Tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa tushuntiriladi.

“Blits-so`rov” metodida “Tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash” bo`yicha topshiriq. (10 daqiqa)

1) Berilgan jadvalni o`rganish.

2) Jadvalda berilgan texnologik jarayonni ketma-ketlikda yakka baho grafasiga raqamlab chiqish.

3) Vaqtdan to`g`ri foydalanish.

4) O`qituvchini tomonidan berilgan to`g`ri javobni “to`g`ri javob” grafasiga yozib chiqish

5) O`qituvchi “to`g`ri javob” bo`limida berilgan raqamlar bilan “yakka baho” bo`limidagi raqamlarni solishtirish va kattadan-kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda “yakka xato” bo`limlariga yozish

6) To`g`ri javoblar sonini yozish va o`zini-o`zi baholash.

7) Tarqatma materialga familiyasi va ismini, sinfini yozish.

| № | Tikiladigan quroq buyumiga eskiz chizish va shablonlar tayyorlash tartibi | Yakka baho | Yakka xato | To`g`ri javob |
|---|---|------------|------------|---------------|
| 1 | Tayyor buyumni bezash | | | |
| 2 | Quroqdan tikiladigan buyumning o`lchamini aniqlash | | | |
| 3 | Chizilgan eskiz uchun quroqning turlarini tanlash. | | | |
| 4 | Quroqdan tikiladigan buyumni aniqlash | | | |
| 5 | Tikiladigan buyum uchun eskiz chizish | | | |

| | | | | |
|----|--|--|--|--|
| 6 | Buyum qanday matodan tikilishini aniqlash | | | |
| 7 | Shablonlarni tekis qirgish | | | |
| 8 | Eskiz asosida shablon tayyorlash | | | |
| 9 | Shablonlarni eskizga joylashtirish | | | |
| 10 | Shablonlarni kattalashtirish va kartonga tushirish | | | |

5-6 ta to`g`ri javob – “qoniqarli”

7-8 ta javob – “yaxshi

9-10 ta javob –“ a`lo”

Yangi mavzu bayoni (15 daqiqa). O`qituvchining kichik ma`ruzasi: Har qanday tikiladigan quroq buyumiga eskiz chiziladi. **Eskiz** - bu buyumning kichraytirilgan masshtab ko`rinishi. Eskiz chizishdan oldin tikiladigan buyumning o`lchovini aniqlab olishi kerak. Masalan: ushlagich 16x16, yostiq jildi 50x50, 60x60, 70x70, bolalar ko`rpasi 120x100, choyshab 120x220. Eskiz asosida buyumning shabloni tayyorlanadi. Shablon - tikiladigan buyumning bir qismiga aniq o`lchovda tayyorlangan chizma. Bu chizma kalka qog`ozda chok haqi tashlanmay bajariladi. Ko`pincha quroq usulida bajarilgan buyumlar bir xil bloklardan iborat bo`lib, takrorlanib buyumning umumiy tasviri chiqadi. Bir blok uchun eskiz chizib olamiz. Lekin eskizga kalka qog`oz yupqaligi uchun kartondan shablon tayyorlaymiz.

Shablonlar ikki xil turda bo`ladi.

1. Chok haqi berilmagan.

2. Chok haqi berilgan.

Shablon uzoqroq xizmat qilish uchun imkoniyatdan kelib chiqqan holda kartondan emas, plastikadan, temirdan, taxtadan tayyorlash mumkin. Shablon sifatida oddiy uchburchak chizg`ichlarni ham ishlatish mumkin. (45, 60, 90 gradusli) Bular yordamida choklarni tekshirish onson bo`ladi. Shablonlar aniq bo`lishi kerak. Chunki bu andoza asosida buyumning umumiy ko`rinishi tuziladi va bu ishimizning sifatiga ta`sir etadi.

Amaliy mashg`ulot. Kichik guruhlar bilan “Choynak yopg`ich” va “Yelpig`ich” quroq buyumi eskizini “Erkin” va “Geometrik shakl” shablonini tayyorlash topshirig`i beriladi. (35 daqiqa).







Guruhlarda ishlash bo`yicha topshiriq:




1. Tikiladigan buyumni aniqlang va eskizini chizing.

2. Eskizda qanday geometrik shakllardan foydalanishni aniqlang.

3. Shablonlar uchun aniq o`lcham oling, chizing va xatosiz qirqing.

4. Tayyorlangan shablonlarni eskizga dizayn jihatdan to`g`ri va aniq, chiroyli holda joylashtiring.





O`tilgan mavzuni mustahkamlash: Taqdimot va baholash. (15 daqiqa)

O`tilgan mavzuni mustahkamlashda har bir guruhga quyidagi topshiriqlar beriladi:

1-guruh. “Yelpig`ich” texnologiyasi elementi asosida jadvalni to`ldiriladi. Guruh sardori tomonidan izohlab beriladi.

| Zardo`zlik | | Quroqchilik | | Kashtachilik | |
|------------|------------|-------------|------------|--------------|------------|
| Afzalligi | Kamchiligi | Afzalligi | Kamchiligi | Afzalligi | Kamchiligi |

2-guruh. “Taqdimot”. Ixtiyoriy biror buyumni guruh tanlaydi. Tanlangan buyum eskizini chizadi. Eskiz asosida shablonlar (o`quvchi rangil qog`oz yoki

gazzlamalardan ham foydalanishi mumkin) tayyorlaydi. Tayyorlangan shablonlarni dizayn jihatdan chiroyli qilib eskizga joylashtiradi. Ishni tayyorlanish bosqichini guruh sardori tomonidan izohlab beriladi.

3-guruh. “Tezkor yordam”. Bu guruh amaliy mashg`ulot jarayonida ishni oxiriga yetkazmagan o`quvchilarga yordam beradi. Bajarilgan ishlar ketma-ketlikda guruh sardori tomonidan izohlab beriladi.

O`qituvchi bajarilgan ishlarni va guruh sardorining ta`rifi asosida guruh ishi baholanadi va guruhlarning faolligiga o`rin belgilanadi. O`qituvchi guruh a`zolarini baholashda quyidagi mezonga asoslanishi lozim.

1. Ishni toza va ozoda bajarilganligi;
2. Tanlangan buyumga eskizni to`g`ri, aniq chizilganligi;
3. Eskiz uchun shablonning mosligi;
3. Tayyorlangan shablonlarni aniq, ravon qirqilganligi;
4. Tayyorlangan shablonlarni dizayn jihatdan chiroyli qilib eskizga joylashtirilganligi;
5. Ish o`rnini saromjonligi va xavfsizlik texnika qoidalariga rioya etilganligi.

Dars yakuni va uyga vazifa (5 daqiqa). O`qituvchi o`quvchilarga dars mavzusini eslatadi. O`quvchilardan mehnat ta`limi darsida bajarilgan ishlarni ketma-ketligini so`raydi, darsni yakunlab, uyga vazifa qilib, tikadigan buyum uchun eskiz chizish va shablon tayyorlab kelish topshirig`ini beradi va darsni yakunlaydi.

Izoh: mazkur dars ishlanma tajribadan o`tkazilgan va amaliyotga joriy etishga tavsiya qilingan

